

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annomatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanlarini o'qitishda samaradorlikka erishish yo'llarini tahlil qilish, takliflari va uni dars jarayonlarida qo'llash borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: umumiy, o'rta ta'lim, ta'lim, maktab, samaradorlik, noyob, iste'dod, samarali, testlar, iqtidor, kreativlik, Ijodiy qobiliyatlar, zamonaviylik tasviriy san'at, mo'y qalam, valik, tuz, quruq cho'tka.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В этой статье рассматриваются анализ, предложения и способы достижения эффективности преподавания изобразительных искусств в общеобразовательных школах и их применение в процессах обучения.

Ключевые слова: общее, среднее образование, образование, школа, работоспособность, уникальность, талант, результативность, тесты, одаренность, креативность, творческие способности, современность изобразительное искусство, фломастер, валик, соль, сухая кисть.

DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN VISUAL ARTS TRAINING

Annotation. This article reflects on the analysis of ways to achieve effectiveness in teaching visual arts in general Secondary Education Schools, its proposals and its application in course processes.

Keywords: general, Secondary Education, Education, school, efficiency, unique, talent, effective, tests, talent, creativity, creative abilities, modernity Fine Arts, Moy pen, roller, salt, dry brush.

Tasviriy san'at darslarida iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishda ularning mustaqilligi, tashabbuskorligi va o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyatlarini oshirish imkoniyatlarini izlash o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Aksariyat o'rta sinf o'quvchilari "rasm chizish"ni o'rganishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar, bu tez orada o'z sa'y-harakatlarining natijalaridan keskin qoniqmaslik va buning natijasida qiziqishning yo'qolishiga, tasviriy faoliyatga bo'lgan motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Bu o'smirlar badiiy ijodga moyil emas, degani emas. Ular ijodiy jarayonni boshlang'ich sinf o'quvchilariga qaraganda o'tkirroq va chuqurroq his qiladilar, uni ko'proq va ongliroq qadrlaydilar. Ammo ular avvalgi ta'lim davrida olgan o'z o'ylagan fikrlarini amalga oshirish vositalari yo usullari yetarli emas, yoki badiiy faoliyatga yangicha munosabat uchun yaroqsiz.

Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda olamni badiiy idrok etish ularning rasmlarida yorqin aks etadi. Ular narsa va hodisalarni, asosan, o'z tasavvurlarida qanday tasavvur qilgan bo'lsalar, shunday tasvirleydilar. Badiiy ijodning so'nishi umumpsixologik yosh inqirozining ko'rinishlaridan biridir. Bolalar tasviriy ijodining betakrorligini saqlab qolishga urinish hech narsaga olib kelmaydi. Mashg'ulotlarning mazmuni va tashkil etilishini

o'quvchilarning san'at mashg'ulotlariga yangicha munosabatini hisobga oladigan tarzda qurish lozim.

O'rta bo'g'in o'quvchilari mazmunni yetkazish vositalari va usullariga obrazli emas, balki tahliliy-aqliy munosabatda bo'ladilar. Navbatdagi xususiyat o'smirlar muhitida "yosh," "zamonaviylik," "o'ziga xoslik" ko'rsatkichi hisoblanishiga e'tiborning kuchayganligidir. O'quvchilar hamma narsani "hayotdagidek" tasvirlashga intiladilar, ularda grafik savodxonlik asoslariga e'tibor kuchayadi va ularni nisbatan tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladilar.

Aksariyat o'quvchilar qoidalarini rasmiy ravishda o'zlashtiradilar, ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunalarni takrorlaydilar. Rassomlik yoki rangtasvir texnikasidagi ijodiy topshiriqlardan qochishga harakat qiladilar yoki qiyinchiliklarga duch kelib, o'zlari allaqachon ishlagan va bajara oladigan tasvirlardan foydalanadilar.

Ijodiy qobiliyatlar - moddiy va ma'naviy madaniyat predmetlarini yaratish, yangi g'oyalar, kashfiyotlar va ixtirolar yaratish, bir so'z bilan aytganda, inson faoliyatining turli sohalarida individual ijodkorlik.

Agar bolaning faoliyati ijodiy xarakterga ega bo'lsa, u doimo o'ylashga majbur qiladi va o'z-o'zidan qobiliyatlarni tekshirish va rivojlantirish vositasi sifatida ancha jozibali ishga aylanadi. Ijodiy faoliyat har doim biror yangi narsani yaratish, o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etish, o'zida yangi imkoniyatlarni kashf etish bilan bog'liq. Bu o'z-o'zidan bilim olishga, kuch-g'ayrat sarflashga kuchli va ta'sirchan turtki bo'ladi. Bunday faoliyat o'z-o'zini ijobiy baholashni mustahkamlaydi, da'vogarlik darajasini oshiradi, o'ziga ishonch va erishilgan yutuqlardan qoniqish hissini uyg'otadi.

Mahalliy va xorijiy pedagogik psixologiyada ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish muammosini hal qilishga yondashuvlar juda xilma-xildir. Xorijda shaxsning ijodiy qobiliyatlarini tavsiflash uchun ko'pincha "kreativlik" tushunchasidan foydalaniladi. Kreativlik - ko'plab original g'oyalarni yaratish qobiliyati. Bundan tashqari, bu tushuncha ijodiy tafakkurga mos keladi, chunki shaxsning ijodiy fikrlash va kreativlik mezonlari juda o'xshashdir.

Mamlakatimiz pedagogikasida ijodkorlik va ijodiy qobiliyat kengroq va moslashuvchan tarzda ko'rib chiqiladi. Faqat ijodiy tafakkur shaxsning ijodiy yo'nalganligining barcha jihatlarini aks ettirmaydi. Ijodda idrok ham, tasavvur ham, ayniqsa, fantaziya ham muhimdir.

Gilford birinchilardan bo'lib ijodiy tafakkurning mohiyatini ochib berishga harakat qildi, uning eng muhim tarkibiy qismlari sifatida originallik, yangilik va bildirilgan g'oyalarning moslashuvchanligini ajratib ko'rsatdi. Ijodiy tafakkurni aniqlashga bo'lgan boshqa urinishlar, ehtimol, Gilford nazariyasining turli xil variantlari bo'lib, mazmunan unga juda yaqin edi.

Ko'pincha o'smirlarda tasviriy qobiliyatlarning yetishmasligi tasviriy san'at va grafikadagi topshiriqlarni bajarish natijalariga ta'sir qiladi. Shartli tasvirlar ko'p bo'lgan dekorativ san'at turlarida ijodiy ishlar ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quv faniga ko'plab turli xil ko'rinish, janr va texnikalarni kiritishni talab qiladi, ular yordamida o'quvchilar o'zlarining ijodiy niyatlarini amalga oshirishlari mumkin.

Binobarin, badiiy ijod inqirozini hal qilishning shartlaridan biri o'quvchining o'zi eng ko'p moyil bo'lgan va yetarlicha tasviriy imkoniyatlarga ega bo'lgan san'at turi, janri yoki texnikasini tanlash yo'li bilan o'z g'oyasini amalga oshirishga imkon beradigan o'quv va ijodiy topshiriqlar bo'lishi mumkin. Bu ta'limga nafaqat tasviriy san'atning mumtoz turlarini, balki ularga yaqin bo'lgan an'anaviy va zamonaviy janrlar, texnikalar va badiiy materiallarda mavjud bo'lgan keng, xilma-xil imkoniyatlarni ham kiritish imkonini beradi.

Tasviriy san'at darslarida quyidagi materiallar va usullaridan foydalanish mumkin:

Rangtasvir texnikasida bo'r, gubka, kosmetik mo'y qalam, valik, tuz, quruq cho'tka, tish cho'tkasi, barmoqlar bilan ishlash, taroq, puflash naychasidan foydalanish mumkin. Rasmda ko'mir, grafit, tush, gel ruchka, pastel, rangli va yog'li qalamlar, sangina, sepiya, flomasterlar va shu kabi ashyolardan foydalanib ishlash mumkin.

Tasviriy san'at bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchilar o'z ijodida go'zallikni yaratishning turli usullari va uslublarni sinab ko'radilar. Ular ichki his tuyg'ularini va taassurotlarini ijodiy va ilmiy o'rganib ularni o'z asarlarida ko'rsata olishni o'rganadilar. Bu

142 ko'nikma bolalar va o'smirlarning hayotiy muhim shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishda go'zallikni baholashni o'z ichiga oladi.

Vazifasi: badiiy faoliyatga o'z ixtiyoriy bilan qiziqishni shakllantirish. Bolalarni tasviriy faoliyatning har xil turlari, badiiy materiallarning xilma-xilligi va ular bilan ishlash usullari bilan tanishtirish, egallangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatish. Diqqatni, intizomni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalash. Bir-biriga xayrixoh munosabatni rag'batlantirish.

Fanga bo'lgan motivatsiyani oshirish: San'atning amaliy turlari va texnikasida ijodiy ishlarni yaratish. O'z g'oyasini amalga oshirishga imkon beradigan o'quv va ijodiy topshiriqlarni bajarish. Eng ko'p moyillik va yetarli tasviriy imkoniyatlar shakllantiradigan san'at turi, janri yoki texnikasini tanlash orqali o'z ijodiy yo'lini topish - muvaffaqiyatli ta'limdir. Ushbu ta'lim yo'nalishi bolalarni badiiy faoliyatini rivojlantirishning eng ishonchli yo'lidir.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchilar o'z ijodida go'zallikni yaratishning turli usullari va uslublarini sinab ko'radilar. Ularda ichki va tashqi dunyoni estetik idrok etish qobiliyati paydo bo'ladi. Bunday qobiliyat bolalar va o'smirlarning hayotidagi shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish va go'zallikni baholashda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahim Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. Qo'llanma. Toshkent - 2008
2. Oyidinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. -T: O'qituvchi, 1997.
3. Umarov A. Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. -O'z. 1998.
4. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. -T Fan. 1997.
5. Sharq miniatyura maktablari. -Toshkent: G'ofur G'ulom, 1989.
6. Oyidinov N. Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari. -T O'qituvchi. 1997.
7. Yakovleva E. L. Talaba shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish / E. L. Yakovleva // Psixologiya savollari. - 1996. - No 3. - S. 28-34